



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	



UDK: 338.43:636.32/.38:551.583(575.1) GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)

Kozokov Najmiddin Isomiddinovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0006-5582-3161

Annotatsiya. Global iqlim o'zgarishi sharoitida cho'l yaylovlari ixtisoslashuvini moslashtirishning nazariy-konseptual asoslari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining eng yirik cho'l yaylov massivlaridan biri hisoblangan Qizilqum hududi misolida olib borilgan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining tarixiy-evolyutsion bosqichlari, cho'l yaylovlarini shakllantiruvchi tabiiy va antropogen omillar, global iqlim o'zgarishining mohiyati hamda uning mintaqa yaylovlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Xitoyning Kubuqi va "Grain for Green" dasturlari, Jazoirning "Yashil to'g'on" loyihasi, Nigeriyaning ACREsAL loyihasi hamda Rim mintaqaviy tajribasi kabi ilg'or xorijiy amaliyotlar qiyosiy tahlil qilinib, ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, respublika cho'l yaylovlarining qariyb 45 foizi turli darajadagi degradatsiyaga uchragan bo'lib, mazkur holat chorvachilik, xususan, qorako'lchilik sohasining barqaror rivojlanishida yaylov resurslaridan samarali foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Cho'l yaylovlarini iqlim o'zgarishiga ilmiy asoslangan tarzda moslashtirish, ularni ozuqabop o'simliklar bilan boyitish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: cho'l yaylovlari, ixtisoslashuv, global iqlim o'zgarishi, moslashtirish, degradatsiya, qorako'lchilik, xorijiy tajriba, barqaror rivojlanish.

Аннотация. Проведен системный анализ теоретико-концептуальных основ адаптации специализации пустынных пастбищ в условиях глобального изменения климата. Исследование выполнено на примере Кызылкумов — одного из крупнейших массивов пустынных пастбищ Республики Узбекистан. Рассмотрены историко-эволюционные этапы специализации сельского хозяйства, природные и антропогенные факторы формирования пустынных пастбищ, сущность глобального изменения климата и его влияние на пастбищные ресурсы региона. Проведен сравнительный анализ передового зарубежного опыта, включая китайские программы Кубуци и «Grain for Green», алжирский проект «Зелёная стена», нигерийский проект ACREsAL, а также региональный опыт Рима, и обоснованы приоритетные направления его применения в условиях Узбекистана. Согласно результатам исследования, около 45 % пустынных пастбищ республики подвержены различным степеням деградации, что усиливает необходимость эффективного использования пастбищных ресурсов для устойчивого развития животноводства, в частности каракулеводства. Разработаны практические рекомендации по повышению экономической эффективности посредством научно обоснованной адаптации пустынных пастбищ к изменению климата, их обогащения кормовыми растениями и внедрения ресурсосберегающих технологий.

Ключевые слова: пустынные пастбища, специализация, глобальное изменение климата, адаптация, деградация, каракулеводство, зарубежный опыт, устойчивое развитие.

Abstract. The theoretical and conceptual foundations for adapting the specialization of desert pastures under global climate change are systematically analyzed. The study is conducted using the Kyzylkum Desert,



one of the largest desert pasture areas in the Republic of Uzbekistan, as a case study. The historical and evolutionary stages of agricultural specialization, natural and anthropogenic factors shaping desert pastures, the nature of global climate change, and its impact on regional pasture resources are examined. Advanced international practices, including China's Kubuqi and "Grain for Green" programs, Algeria's "Green Wall" project, Nigeria's ACRReSAL project, and the regional experience of Rome, are comparatively analyzed, and priority areas for their application under the conditions of Uzbekistan are substantiated. According to the research findings, approximately 45% of the country's desert pastures are affected by varying degrees of degradation, increasing the need for the efficient use of pasture resources to ensure the sustainable development of livestock farming, particularly Karakul sheep breeding. Practical recommendations are developed to improve economic efficiency through the scientifically grounded adaptation of desert pastures to climate change, enrichment with forage plants, and introduction of resource-saving technologies.

Keywords: desert pastures, specialization, global climate change, adaptation, degradation, Karakul sheep breeding, international experience, sustainable development.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi hududining katta qismini tashkil etuvchi cho'l yaylovlari, xususan, Qizilqum massivi milliy iqtisodiyotning, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohasining muhim resurs bazasi hisoblanadi. Ushbu hududlarda shakllangan qorako'lchilik tarmog'i nafaqat mamlakat ichki bozorini ta'minlashda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham strategik ahamiyatga ega. So'nggi o'n yilliklarda kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi va antropogen omillarning kuchayishi natijasida cho'l yaylovlaridan oqilona va samarali foydalanish zarurati yanada ortib bormoqda. Olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra, respublika cho'l yaylovlarining 45–50 foizga yaqini turli darajadagi degradatsiya jarayonlariga duch kelgan. Mazkur holat yaylovlardan foydalanuvchi chorvachilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash, hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini yanada kuchaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Muammoning dolzarbligi shundaki, cho'l yaylovlari ixtisoslashuvini global iqlim o'zgarishi sharoitlariga ilmiy asoslangan tarzda moslashtirish masalasini iqtisodiy nuqtai nazardan yanada chuqur tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati botanika, agronomiya va ekologiya sohalariga qaratilgan bo'lib, cho'l yaylovlari ixtisoslashuvining iqtisodiy-nazariy asoslari, uning tarixiy evolyutsiyasi va xalqaro amaliyotlar kontekstidagi tahlilini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida mazkur tadqiqot cho'l yaylovlari ixtisoslashuvining nazariy-konseptual asoslarini, uni shakllantiruvchi omillarni hamda global iqlim o'zgarishiga moslashtirish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi — mintaqada cho'l yaylovlari ixtisoslashuvini global iqlim o'zgarishi sharoitlariga moslashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tahlil qilish va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanishning iqtisodiy jihatdan asoslangan yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Cho'l yaylovlari ilmiy jihatdan o'rganish mintaqada XIX asr boshlaridan boshlangan bo'lib, bu borada rus, markaziy osiyolik va o'zbekistonlik olimlarning hissasi katta. Tadqiqotlar tarixini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqichda (1820–1920-yillar) cho'lshunos va landshaftshunos olimlar tomonidan yaylovlarning iqlimi, tuprog'i va o'simliklar qoplami dastlabki tarzda o'rganilgan; ikkinchi bosqichda (1920–1950-yillar) yaylov maydonlari kompleks tarzda tadqiq etilib, ulardan foydalanishning ilk ilmiy asoslari yaratilgan; uchinchi, hozirgi bosqichda (1950-yildan buyon) esa ozuqabop o'simliklarni introduksiya qilish va mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan tajriba stansiyalari (Nurota, Qarnabcho'l, Oyog'-og'itma) faoliyat yuritmoqda. Yaylovshunoslikka katta hissa qo'shgan M. Maxmudov va Q. Haydarovlarning tadqiqotlari, shuningdek, iqlim hududlashtirish nazariyasini rivojlantirgan B. P. Alisov va M. I. Budiko kabi olimlarning ishlari cho'l yaylovlari va iqlim o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda muhim nazariy zamin yaratadi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish cho'l yaylovlari ixtisoslashuvi va uni global iqlim o'zgarishiga moslashtirishning iqtisodiy jihatlarini yanada chuqur tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishning xarajat va samaradorlik nisbati, hududiy ixtisoslashuv darajalarini baholash metodologiyasi hamda iqtisodiy prognozlashtirish masalalarini ilmiy jihatdan yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribaga oid materiallar, xususan, FAO, UNCCD va Jahon banki hisobotlarida asosan amaliy loyihalar tavsifi keltirilgan bo'lib, ularni O'zbekiston sharoitiga



moslashtirilgan qiyosiy-iqtisodiy tahlil qilish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatuv, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanildi. Nazariy-konseptual asoslarni yoritishda tarixiy-evolyutsion yondashuv qo'llanildi, bunda qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil qilindi. Xorijiy tajribalarni o'rganishda qiyosiy tahlil usuli asosida uchta davlat — Xitoy, Jazoir, Nigeriya — va bitta mintaqaviy tajriba — Rim tajribasi tanlab olindi. Ular O'zbekiston kabi qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega hududlar sifatida metodologik jihatdan qiyoslash uchun mos hisoblanadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi hamda Buxoro va Navoiy viloyatlari hududiy yaylov xo'jaliklari boshqarmalarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Cho'l yaylovlari ixtisoslashuvining nazariy asoslari va evolyutsion bosqichlari

Iqtisodiy nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish — hududning ekologik va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, unda muayyan turdagi ekinlarni yetishtirish yoki chorvachilikni ushbu sharoitlarga moslashtirish jarayonidir. Tarixiy jihatdan qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi bir necha inqilobiy bosqichlarni bosib o'tgan (1-jadval): neolit inqilobidan boshlab, agrar islohotlar, "yashil inqilob" va hozirgi biotexnologik inqilob davrigacha. Har bir bosqichda hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos ravishda ixtisoslashuv chuqurlashib borgan.

1-jadval
Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining evolyutsion bosqichlari¹

No	Bosqich	Davri	Asosiy xususiyati
1	Neolit inqilobi	~10 ming yil oldin	Ovchilik-termachilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tish
2	Agrar islohotlar	XVIII–XIX asrlar	Yerga texnik ishlov berish, urug'chilik va seleksiya ishlarining boshlanishi
3	"Yashil inqilob"	XX asr o'rtalari (1950–1970-yillar)	Yuqori hosilli navlar va kimyoviy o'g'itlarning joriy etilishi
4	Biotexnologik inqilob	XXI asr	Raqamli texnologiyalar, aniq seleksiya, sun'iy urug'lantirish

Cho'l yaylovlari o'zining tabiiy-tarixiy xususiyatlariga ega. Qizilqum va Qoraqum kabi cho'l massivlari mintaqada taxminan 70 million yil avval, Kaynazoy erasi davrida shakllangan bo'lib, keyingi geologik va iqlimiy jarayonlar natijasida bugungi ko'rinishga kelgan (2-jadval). Ushbu hududlarda ilk qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi esa miloddan avvalgi 7–4-ming yilliklarda Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari bo'yida shakllangan bo'lib, dastlab ko'chmanchi chorvachilik, keyinchalik esa qorako'l qo'ychiligiga ixtisoslashuv shaklida rivojlangan (2-jadval).

2-jadval
Cho'l yaylovlarining tabiiy-tarixiy shakllanish bosqichlari²

No	Davr	Muddati	Ahamiyati
1	Boshlang'ich davr (Kaynazoy erasi)	~70 mln yil oldin	Kontinental iqlim ta'sirida Qizilqum va Qoraqum massivlarining shakllanishi
2	Moslashuv davri	7–4 mln yil oldin	O'simliklar va hayvonot dunyosining cho'l sharoitiga moslashuvi
3	Ekotizim shakllanish davri	2,5 mln yil oldin	Cho'l va yarim cho'l hududlarining vujudga kelishi

¹ Adabiyotlar tahliliga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

² Adabiyotlar tahliliga asosan muallif tomonidan tayyorlangan



Mustaqillikdan keyingi davr (1990-yildan hozirgacha) cho'l yaylovlari ixtisoslashuvi rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi. Bu davrda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yaylovlar fermer xo'jaliklari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga xususiylashtirilib, ixtisoslashuv diversifikatsiyalana boshlagan. 2022-yildan boshlab esa davlat siyosati darajasida yaylovlarni raqamlashtirish va ilmiy asosda boshqarishga o'tish davri boshlandi: 2022-yil 10-iyundagi tegishli Farmon bilan yer degradatsiyasiga qarshi yagona tizim yaratildi, 8,18 million gektardan ortiq yaylov maydoni raqamli xaritada tushirildi va 2025–2027-yillarga mo'ljallangan Milliy dastur asosida degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash ishlari yo'lga qo'yildi.

Hududlar kesimida cho'l yaylovlarining chorvachilik sohasiga ixtisoslashuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega (3-jadval). Buxoro viloyati qorako'l zotli qo'ylarni boqish va teri eksportiga, Navoiy viloyati qorako'lchilik va echkichilikka, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari qo'ychilik va echkichilikka, Qoraqalpog'iston Respublikasi esa tuyachilik va qo'ychilikni rivojlantirishga ixtisoslashgan [3]. Bunday hududiy ixtisoslashuv har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoiti va yaylov sig'imi bilan bevosita bog'liq (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston cho'l yaylovlarining hududlar kesimida chorvachilik sohasiga ixtisoslashuvi³

No	Hudud	Asosiy ixtisoslashuv	Iqtisodiy ahamiyati
1	Buxoro viloyati	Qorako'l zotli qo'ychilik va teri eksporti	Sifatli teri, jun va go'sht mahsulotlari yetishtirish
2	Navoiy viloyati	Qorako'lchilik va echkichilik	Sifatli teri, jun va go'sht mahsulotlari yetishtirish
3	Qashqadaryo viloyati	Qo'ychilik va echkichilik	Qisman qorako'lchilik, jun va go'sht mahsulotlari
4	Jizzax viloyati	Qo'ychilik va echkichilik	Go'sht va jun mahsulotlari yetishtirish
5	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Tuyachilik va qo'ychilik	Go'sht va jun mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish

Cho'l yaylovlarini shakllantiruvchi omillar va ularning ixtisoslashuvga ta'siri

Cho'l yaylovlarining shakllanishi tabiiy va antropogen omillarning uzoq muddatli o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi (4-jadval). Iqlimiy omillar (yog'ingarchilikning kamligi, yuqori bug'lanish, atmosfera aylanishi) va geografik joylashuv (okeanlardan uzoqlik, tog' tizmalarining yomg'ir soyasi effekti) cho'l ekotizimining tabiiy shakllanishini belgilasa, inson omili — cho'l yaylovlaridan intensiv foydalanish, o'rmonlarning kesilishi va sug'orish jarayonidagi ayrim kamchiliklar — mavjud degradatsiya jarayonlarining jadallashuviga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni chuqur o'rganish cho'l yaylovlari ixtisoslashuvini iqlim o'zgarishiga moslashtirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir omil turi uchun o'ziga xos aralashuv chora-tadbirlarini qo'llash talab etiladi (4-jadval).

4-jadval

Cho'l yaylovlarini shakllantiruvchi asosiy omillar⁴

No	Omil guruhi	Tarkibi	Ahamiyati / ta'siri
1	Iqlimiy omillar	Yog'ingarchilikning kamligi, yuqori bug'lanish, atmosfera aylanishi	Cho'l hududlarining tabiiy shakllanishini belgilaydi (masalan, Sahara cho'li)
2	Geografik joylashuv	Okeanlardan uzoqlik, yomg'ir soyasi effekti	Nam havo massalarining yetib bormasligi (Markaziy Osiyo, Gobi cho'li)
3	Shamol va eroziya	Yer unumdorligining pasayishi	Tuproq qatlamining uchishi va degradatsiyaga uchrashi
4	Inson omili	Intensiv foydalanish, sug'orish jarayonidagi kamchiliklar, o'rmonlarning kesilishi	Tuproq sho'rlanishi va cho'llanish jarayonlarining jadallashuvi

Global iqlim o'zgarishining mohiyati va mintaqa cho'l yaylovlariga ta'siri

Global iqlim o'zgarishi — Yer yuzasining o'rtacha harorati, yog'ingarchilik rejimi va boshqa iqlimiy ko'rsatkichlarning uzoq muddat davomida o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, so'nggi 100-yil ichida Yer yuzasining o'rtacha harorati taxminan 1,1 °C ga oshgani ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan.[1] Uning asosiy xususiyatlari qatoriga issiqxona effektining kuchayishi, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalarning ko'payishi hamda qishloq xo'jaligi va biologik xilma-xillikka ta'sirning kuchayishi kiradi.

O'zbekiston hududida, xususan, tayanch gidrometeorologiya stansiyalarining ko'p yillik kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha yillik havo harorati barqaror ravishda ko'tarilib bormoqda: 2000-yilda havoning o'rtacha harorati iqlimiy me'yordan 1,13 °C yuqori bo'lgan. Pomir-Olay muzliklari 1957–1980-yillar davomida suv zaxirasining 19 foizini yo'qotgan.[2] Bu holat tog' daryolari oqimining qisqarishi va hududlarda cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday tendensiyalar Qizilqum cho'l yaylovlari ozuqabop

3 Markaz tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalarining hisobotiga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

4 Adabiyotlar tahliliga asosan muallif tomonidan tayyorlangan



o'simliklar qoplamini saqlash va kengaytirish, yaylov sig'imini barqarorlashtirish hamda qorako'chilik xo'jaliklarining ozuqa ta'minotini mustahkamlash zaruratini kuchaytiradi.

Shu tariqa, global iqlim o'zgarishi mintaqa cho'l yaylovlari ixtisoslashuviga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan, mavjud ozuqabop o'simliklar qoplamining qisqarishi an'anaviy chorvachilik ixtisoslashuvini yangi sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, iqlimga chidamli o'simlik turlarini introduksiya qilish va yangi resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ixtisoslashuvni sifat jihatidan yangilash imkoniyatlarini yaratmoqda.

Cho'l yaylovlari iqlim o'zgarishiga moslashtirishning ilg'or xorijiy tajribalari

Xalqaro miqyosda, xususan, FAO homiyligida qurg'oqchilik va cho'llanish jarayonlariga moslashish borasida bir qator mintaqaviy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ularning ichida O'zbekiston sharoitiga eng yaqin va amaliy ahamiyatga ega bo'lganlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Cho'l yaylovlari iqlim o'zgarishiga moslashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar⁵

No	Davlat / loyiha	Asosiy mazmuni	O'zbekiston sharoitida qo'llash yo'nalishi
1	Xitoy — Kubuqi modeli (Elion Group)	1988-yildan buyon 6000 km ² cho'l maydonini qayta tiklash; ekotizimning ishlab chiqarish qiymati 5,1 mlrd AQSH dollariga baholangan	Yaylovlarni barqaror boshqarish uchun mahalliy ishchi guruhlar tashkil etish
2	Xitoy — "Grain for Green" dasturi	Loess platosida chekka ekin yerlarini o'rmon va o'tloqlarga aylantirish, fermerlarga subsidiyalar berish	Degradatsiyaga uchragan yaylovlarda urug'chilik maydonlarini tashkil etish va ozuqabop o'simliklar qoplamini kengaytirish
3	Jazoir — "Yashil to'g'on" loyihasi	~1000 km masofada o'rmon to'sig'ini barpo etish orqali Sahroi Kabirning kengayishini cheklash	Qum-chang bo'ronlariga qarshi ekologik to'siqlar barpo etish
4	Nigeriya — ACREsAL loyihasi	Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan, 1 mln gektar degradatsiyaga uchragan yerni tiklashga qaratilgan olti yillik dastur	Kompleks landshaftni tiklash: irrigatsiya, eroziyaga qarshi chora-tadbirlar va jamoa ishtirokini kengaytirish
5	Rim (qurg'oqchil zonalar tajribasi)	Yaylovlardan navbatma-navbat foydalanish, qurg'oqchilikka chidamli o'simlik turlarini joriy etish	Mahalliy fermerlarni ob-havo kuzatuv va iqlimga moslashuv bo'yicha o'qitish tizimini yaratish

Keltirilgan tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, samarali xorijiy loyihalarning barchasida uchta umumiy tamoyil mavjud: 1) davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining mavjudligi; 2) mahalliy aholi va fermer xo'jaliklarining loyihaga bevosita jalb etilishi; 3) iqlimga chidamli o'simlik turlarini ilmiy asoslangan tarzda introduksiya qilish. O'zbekistonning Qizilqum cho'l yaylovlari ushbu tamoyillarni joriy etish, xususan, Buxoro cho'l-yaylov ozuqabop o'simliklar urug'chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi faoliyatini kengaytirish, resurs tejamkor ekish texnologiyalarini, jumladan, an'anaviy ekish usullariga nisbatan xarajatlarni 48 foizgacha kamaytirishga imkon beruvchi innovatsion ekish uskunalarini keng joriy etish hamda hududiy "eko-sanoat parklari"ni tashkil etish orqali yaylovlarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston cho'l yaylovlari, xususan, Qizilqum massivi mamlakat iqtisodiyoti va oziq-ovqat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy resurs bazasi hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi va antropogen omillar ta'sirida uning qariyb yarmi — 41,4 foizi⁶ — turli darajadagi degradatsiya jarayonlariga duch kelgan. Mazkur holat cho'l yaylovlari ixtisoslashuvini ilmiy asoslangan tarzda qayta ko'rib chiqish va iqlim o'zgarishi sharoitlariga moslashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos, iqlimga chidamli ozuqabop o'simlik turlarini ilmiy asoslangan tarzda tanlash va introduksiya qilish tizimini kengaytirish;

5 Lanshou universiteti-2015. FAO ning "Osiyoda o'tloqlar va yaylovlarni barqaror boshqarish" mintaqaviy maslahatlashuv konfrensiya to'plam materialiga asosan muallif tomonidan tayyorlangan

6 Veternariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisoboti.



2. cho'l yaylovlarida urug'chilik bazasini mustahkamlash va resurs tejamkor ekish texnologiyalarini, masalan, ozuqabop o'simliklar urug'larini ekishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan mexanizmlarni keng joriy etish;

3. tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida hududlarda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan eko-sanoat parklarini tashkil etish;

4. Xitoy, Jazoir va Nigeriya tajribasidan kelib chiqib, davlat–xususiy sektor–mahalliy aholi hamkorligiga asoslangan yaylovlarni boshqarish modelini shakllantirish;

5. yaylovlar holatini muntazam monitoring qilish va raqamli xaritalash tizimini yanada takomillashtirish orqali degradatsiyaga uchragan maydonlarni tiklash bo'yicha o'rta muddatli iqtisodiy prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish mintaqa cho'l yaylovlarida ekologik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga, qorako'chilik va boshqa chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, shuningdek, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi "Yaylovlar to'g'risida"gi O'RQ-538-son Qonuni: <https://lex.uz/ru/docs/-4344714>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi "Qorako'chilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3603-son Qarori.: <https://lex.uz/docs/-3587484>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277-son qarori.: <https://lex.uz/uz/docs/-6058690>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-24-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-6386439>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-199-son Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-6673808>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-iyundagi "Iqlim o'zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-233-son qarori.: <https://lex.uz/uz/docs/-6982706>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-15-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-7353473>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 299-son qarori.: <https://lex.uz/docs/-3713560>
9. Yavmutov D. Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot: ma'ruzalar matni. – Buxoro, 2008.
10. Maxmudov M., Haydarov Q. Yaylovshunoslik. – Toshkent, 2010.
11. Nig'matov A., Shivaldova N. Iqlim va biz: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011.
12. Rabbimov A., Muqimov T. Tog'oldi yarim cho'l yaylovlaridan oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirishga oid tavsiyalar. – Toshkent, 2016.
13. Abbosov S. B. Qizilqum cho'li landshaftlari dinamikasi va ekologiyasi: monografiya. – Samarqand: SamDU, 2019.
14. FAO. The Future of Food and Agriculture: Alternative Pathways to 2050. – Rome: FAO, 2018.
15. FAO. Regional Consultative Meetings on Sustainable Rangeland Management in Asia and Drylands. – 2015–2023.
16. UNCCD. Global Land Outlook. 2nd ed. – Bonn: UNCCD Secretariat, 2022.
17. World Bank. Agro-Climatic Resilience in Semi-Arid Landscapes (ACReSAL) Project Appraisal Document. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2022.
18. G'aniyev O. O. O'zbekiston Respublikasi yaylovlaridan foydalanish tendensiyasi // "Intensiv qishloq xo'jaligida agrobiotexnologik muammolar va ularning innovatsion yechimlari" mavzusidagi maqolalar to'plami. – Samarqand, 2024.
19. Ларин И. В. Пастбищеоборот. Система использования пастбищ и ухода за ними. – Москва–Ленинград: Сельхозгиз, 1960.
20. Maqsudov X. S. Iqlimshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 1978.



21. "Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida barqaror rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman: maqolalar to'plami. 1-qism. – Andijon, 2024.
22. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisoboti. – 2025.
23. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining API portal. – URL: api-portal.gov.uz.
24. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). – URL: FAO hujjatlar bazasi.
25. Google Scholar ilmiy qidiruv tizimi. – URL: Google Scholar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>